

**JINOYAT PROTSESSIDA ISHTIROK ETISHNI RAD ETISH
ASOSLARINING YURIDIK TAVSIFI**

Durdubaeva Nargiza Muratabaevna

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar va rad etish tushunchasi hamda rad qilish institutining mazmun mohiyati va rad etish asoslarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Jinoyat protsessi, rad qilish, monelik qiluvchi holatlar, sudya, proruror, tergovchi, xalq maslahatchisi, guvohlar, himoyachilar,

Аннотация. В данной статье рассматриваются обстоятельства, препятствующие участию в уголовном процессе и понятие отказа, сущность института отказа и вопросы совершенствования оснований отвода.

Ключевые слова: Уголовное производство, опровержение, воспрепятствование, судья, прокурор, следователь, общественный защитник, свидетели, защитники

Annotation. This article examines the circumstances that prevent participation in the criminal process and the concept of refusal, the essence of the institution of refusal and the issues of improving the grounds for refusal.

Key words: criminal proceedings, rebuttal obstruction, judge, prosecutor, investigator, public counsel, witnesses, defense attorneys

Shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish jinoyat sud protsessining asosiy vazifasi hisoblanadi. Xolis adolatli va obyektiv jinoyat protsessining kafolatlaridan biri milliy qonunchiligimizda rad qilish va o`zini o`zi rad qilish institutining kiritilishi hisoblanadi. U shaxslarning manfaatlarini tergovdan va jinoyat ishiga ruxsat berishdan kompleks himoya qilish bo'yicha choralardan tarkib topgan. Ko'pchiligi jinoyat ishi bo'yicha tergovchining ob'ektivligidan shuningdek mohiyatan ko'rilayotgan hal qilishga noxolis munosabatda bo'lish ishning sifatini mohiyatan pasaytiradi va faqatgina aloxida olingan organning yoki mansabdor shaxsning emas boshqa huquqni muxofaza qiluvchi tizimlarning tulaligicha, fuqarolarning davlat organlariga negativ munosabatlariga olib keladi.

Jinoyat protsessida sud va boshqa ishtirokchilarning xolisligini ta'minlovchi bir qancha protsessual vositalar mavjud. Lekin shunga qaramasdan ishning ko'rilishidan oz shaxsiy manfaatni ko'zlovchi ishtirokchilardan xalos bo'lish mexanizmining asosini rad qilish instituti tashkil qiladi. Ish bo'yicha haqiqatni aniqlash, qonuniy, asosli va adolatli sud qarorini qabul qilish uchun eng muxim protsessual vositalardan biri hisoblanadi.

Jinoyat-protsessual faoliyatda o'zlariga berilgan huquqlardan foydalanish, hamma vazifalarni bajarish orqali ishtirok etadigan davlat organlari, mansabdor

shaxslar, fuqarolar, jamoat birlashmalari, jamoalarning vakillari jinoyat protsessining ishtirokchilari hisoblanadilar. Jinoyat protsessining har bir ishtirokchisi o'ziga mos vazifani, ya'ni o'z faoliyat yo'nalishini ifoda etuvchi xizmat burchini o'taydi. Bu vazifaning xususiyati protsessning mazkur ishtirokchilari bajaradigan vazifalarga va ularning muhofaza qilinadigan manfaatlariga bog'liq holda belgilanadi.

Shu o'rinda mo'nelik qilish tushunchasiga etibor qaratsak, o'zbek tilining izohli lugatida mo'nelik qilish tushunchasi lug'aviy manbalarda "mo'ne" so'zi – (arabcha) man etuvchi, to'siq bo'luvchi, to'siq, g'ov, to'sqinlik, qarshilik qiluvchi man etuvchi ma'nosini; monelik so'zi - to'sqinlik, qarshilik qilish, mo'ne bo'lish, yo'l qo'ymaslik ma'nosini manosi anglatadi.

Shuningdek «rad qilish» tushunchasi muayyan narsani, holatni, hodisani inkor etish, qaytarish, qabul qilmaslik, taklifni rad etish, unga qarshilik qilishni anglatadi. Shuningdek, «raddiya - arabcha so'z bo'lib, u biror xabar yoki ma'lumotni inkor qilish, uning notog'ri va asossiz ekanligini isbot qiluvchi rasmiy bayonat» hisoblanadi. Boshqa manbada, «raddiya - arabcha so'z bo'lib, u biror hodisa yoki ma'lumotni inkor etuvchi, uning yolg'on va asossiz ekanligini isbot qiluvchi rasmiy hujjat» hisoblanadi. Rad qilish instituti qollash yordamida dastlabki tergov va sud muhokamasining xolisligi va begarazligi ta'minlanadi.

Rad qilish - sudyani, xalq maslahatchisini, qasamyod qilgan maslahatchining, prokurorni, tergovchini, sud majlisi kotibini, ekspertni yoki tarjimonni ishning natijasidan shaxsan (tug'ri yoki egri) manfaatdorligi yoxud ularning xolisligiga shubha tug'diradigan boshqa sabablar tufayli ishni muhokama qilinishidan chetlashtirishni anglatadi. Rad qilish (yoki raddiya berish) muayyan holatlar, shart-sharoitlar hamda asoslar mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan holat va shartlarning asoslari jinoyat-protsessual qonunchiligida aniqlab berilgan. Mazkur institutning jinoyat sudlov yurituvida mavjudligi qonun chiqaruvchining shunday protsessual-huquqiy normani joriy etishdan maqsadi bevosita jinoyat protsessi ishtirokchilarining qonuniy manfaatlarini real tarzda ta'minlash va ularni noqonuniy cheklashlardan muhofaza qilishdan iborat.

Albatta, bular rad qilishning asosiy elementlari hisoblansada, ammo, uning yana bir elementi mavjudki, u ham rad qilish strukturasi muhim o'ringa ega. Bu - rad qilish uchun asoslar mavjud bo'lganda o'zini o'zi rad qilishdir. Negaki, o'zini o'zi rad qilish jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lganda, sub'ektning o'zini o'zi rad qilishga oid axloqiy-huquqiy va aqliy-psixologik jihatlarining namoyon etilishiga tayanadi hamda ushbu ishtirokchi o'zini o'zi rad qilish haqida sudga iltimosnoma bildirishi lozim.

V.G.Zaderakoning fikricha, o'zini o'zi rad qilish - bu jinoyat-sudlov yurituvida muayyan holatlar mavjud bo'lganligi bois, ishda ishtirok etishiga mo'nelik qiladigan sub'ektlar tomonidan rad qilish masalasini hal qiluvchi vakolatli shaxsga o'zining nima sababdan ishda ishtirok eta olmasligini asoslagan holda ariza bilan murojaat qilishidir.

Shu bilan birga, rad qilish instituti bilan bog'lik holatlar va shartlarni aniqlashda jinoyat protsessida rad qilinishi mumkin bo'lgan sub'ektlar doirasi aniqlash lozim. Bundan tashqari rad qilinishi mumkin bo'lgan shaxslar nafaqat jinoyat ishini yurituvchi vakolatli shaxslar bo'lishi mumkin, balki sodir etilgan jinoyat yuzasidan barcha holatlarni aniqlash maqsadida jinoyat ishiga jalb qilinadigan boshqa shaxslar ham rad qilinishi mumkin. O'zini o'zi rad qilishi zarur bo'lgan ishtirokchi rad qilish huquqiga emas, balki o'zini o'zi rad qilish majburiyatiga egadir.

M.Kazarinning fikricha ishni yolg'iz ko'rayotgan sud'yaga rad qilish haqida murojat qilinganida rad qilish uchun shaxs tomonidan hal qilinishi kerak, masalan tegishli sud raisi tomonidan. Faqat shundagina sud'yani rad qilish va o'zini o'zi rad qilish, noxolis sud'yaning mustaqil sud'ya bilan almashtirilishi sudlarning mustaqilligining prosessual kafolati taminlanadi.

Bundan tashqari Ye.Martinchikning fikricha sud'yaning manfaatdorligining mavjudligi ularning jinoiy ishni kurib chiqishini man etishni anglatadi. Shaxsiy manfaatdorlik sud'yaning vazifalari va kasbiy burchidan kelib chiqadigan yoki shaxsiy, jamoat manfaatlaridan ajralib turishi kerak deb hisoblaydi.

Bizning fikrimizcha rad qilishni qonunda belgilangan holatlar bilan bir qatorda sud'yaga ishonchsizlikdan kelib chiqadigan boshqa turdagi holatlarni diskvalifikasiya qilish uchun asoslar sifatida tan olish zarur. Shunki sud tergov amaliyotida rasmiy ravishda qonun doirasiga tug'ri kelmagan lekin aslida sud'yaning ishda ishtirok etish imkoniyatini moxiyatan istisno qilagan holatlar ham uchrab turishini inobatda olsak u sud'yaning rad etilishi sababini uning guman qilinayotganligini va buni shunday holat mavjudligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi JPK jinoyat protsessining aksariyat ishtirokchilari ish yuritilishida ishtirok etishi mumkin bo'lmagan holatlarni nazarda tutadi. Ularni qonunda belgilangan hollarda protsessdan chiqarib tashlash ishning xolisona o'rganilishini va mohiyati bo'yicha hal etilishini kafolatlaydi.

Xulosa qilib aytganda amaliyotda yuz berayotgan muammolar tahlili shuni ko'rsatadiki, jinoyat protsessida ishtirok etishni rad qilish uchun asoslar va ishni ko'rib chiquvchi shaxslarni protsessda ishtirok etishni man etuvchi holatlarni yanada takomillashtirish lozimligini taqoza etadi. Shuningek ishni ko'rib chiquvchi shaxslarning beg'arazligiga shubha tug'diruvchi holatlar tushunchasi ham toliq oshib berilmagan va ushbu tushunchalar yuzasidan aniq korsatmalar yaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ампеннов.С.С, *Обстоятельство исключают участие в уголовном судопроизводстве.* /diss.rsl.ru Тюмен 2010
2. Казарин М.А. Отвод и самоотвод как гарантия незасимисти судьей Вестник Томского государственного института 2020. № 459. С. 235–241. DOI: 10.17223/15617793/459/29

3. Таран.А.С судебная практика: Недоверие как основание суда/ Актуальные проблемы российского права. 2021. Т. 16. № 5 (126).
4. М.Ниязов. Жиноят процессида рад килиш институтининг ривожланиш асослари. “НОШИР” Тошкент 2013 й. -18 б
5. Х.Мамедова: Институт отводов В советском уголовном судопроизводстве. diss.rsl.ru - Москва: 2006. - С. 35.
6. Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал кодекси. “Yuridik adabiyotlar publish” Toshkent, 2022 у, 58 б.
7. Рибкова К.О. Об унификации в различных видах судопроизводства порядка разрешения отвода (самоотвода) судьей, рассматривающим дело единолично, Журнал «Российская юстиция», 2020, № 12, с. 55-58
8. Махвадалиев.А. Ozbek tilining izohli lugati /Ziyouz. uz.